

DEVELOPMENT OF VISUAL ACTIVITY OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

PhD, DotsentMSPD_N-U25 Guruh talabasi

Kamolova Xurshida Shamshidin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Abstract

This work covers the theoretical and practical aspects of developing visual activity of students with hearing impairments. The study analyzed the psychophysiological characteristics of this category of children, the predominance of visual perception, the influence of visual arts on their cognitive processes and emotional development.

Keywords: Students with hearing impairments, visual activity, special pedagogy, visual perception, demonstration method, creative development, aesthetic education, fine motor skills.

Introduction

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI TASVIRIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

PhD, Dotsent MSPD_N-U25 Guruh talabasi

Kamolova Xurshida Shamshidin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Annotatsiya

Ushbu ishda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tasviriy faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda mazkur toifadagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, vizual idrokning ustunligi,

tasviriy san'atning ularning bilish jarayonlari va emotsional rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, tasviriy faoliyat, maxsus pedagogika, vizual idrok, ko'rgazmali metod, ijodiy rivojlanish, estetik tarbiya, mayda motorika

Zamonaviy ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarning, xususan eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning rivojlanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Eshitish qobiliyatidagi cheklanish nafaqat nutq va muloqot jarayoniga, balki bolaning umumiy bilish faoliyati rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu toifadagi o'quvchilar bilan ishlashda tasviriy san'at vositalaridan samarali foydalanish ularning emotsional holati, tasavvuri, ijodiy fikrlash qobiliyati va mayda motorikasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy faoliyat jarayoni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'z fikrini rang va shakllar orqali ifodalash imkonini yaratadi. Vizual idrokning ustunligi ularning ijodiy faoliyatida o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Shu sababli pedagog oldida nafaqat rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirish, balki o'quvchilarning hissiy-estetik olamini boyitish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash vazifalari turadi. Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limini amalga oshirishda oiladagi tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishini yana e'tirof etgan holda bunday toifa bolalarni barcha sharoitlar mavjud ta'lim muassasasiga joylash bilan kifoyalanib bo'lmasligini ta'kidlashimiz lozim. Eshitishida muammosi bo'lgan farzandi bor har bir ota-onaga mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Ya'ni, aynan ota-onaning o'z farzandi kamol topishidagi sa'yi-harakatlariga bog'liq holda uning keyingi hayotiga asos solinadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tasviriy faoliyatni rivojlantirish maxsus pedagogik yondashuv, vizual vositalarning ko'paytirilishi va o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi. Tasviriy san'at ushbu bolalarda nutqiy muloqot cheklangan bo'lsa-da, tasavvur, fikrlash, emotsional ifoda va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay vositalardan biri hisoblanadi.

1. Vizual idrokni rivojlantirish

Eshitishda nuqson bo'lgan bolalarda ko'rish orqali idrok yetakchi o'rinni egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyat mazmunida quyidagilar muhim:

ranglarni idrok etish va farqlashni o'rgatish;

shakl, o'lcham, holat va kompozitsiyani tushuntirish;

namoyish etish, predmet modellarini ko'rsatish, vizual ko'rsatmalar qo'llash.

2. Mayda motorika va qo'l harakatlarini rivojlantirish

Bunday o'quvchilarda mayda motorikaning rivoji ular nutqiy rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liq. Tasviriy faoliyatda:

bo'yash, chizish, yirtib-yopishtirish, plastilindan yasash,

mo'yqalam, qalam, flomaster, loy bilan ishlash

kabi mashqlar motorikani rivojlantiradi va ijodiy jarayonni faollashtiradi. Ota-onalar yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi oilaning barcha a'zolari zaif eshituvchi bola uyda bo'lgan vaqtida surdopedagog xodimlar ishining davomchilari sanalib, ushbu mutaxassislarning rahbarligi ostida farzandlarining ta'lim va tarbiyasi borasidagi kelgusi barcha ishlar uchun zamin hozirlaydilar. Bolaning so'zlashuv nutqini rivojlantirish hamda muloqot (kommunikativ) malakalarini shakllantirish bo'yicha tashkil etiluvchi ishlar tashxis qo'yilgan va ovoz kuchaytirgich asbob(apparat)i bilan ta'minlangan ilk kunlardan boshlanishi samarali natija beradi. Ba'zi hollarda tashxis qo'yilgan bo'lsada, turli sabablar tufayli ovoz kuchaytirgich asbobi bilan ta'minlanish imkoniyati chegaralangan bo'lsa ham bola bilan shug'ullanishni boshlab yuborish tavsiya etiladi.

Uy sharoiti bola lug'at boyligining kengayishi, so'zlashuv nutqi, talaffuz hamda eshitish malakalarining shakllanishi, bilim va tushunchalarning rivojlanishi uchun turli-tuman tabiiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Biz har bir bola bilan uy sharoitida maxsus ravishda tashkil etiluvchi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning qiziqishlariga mos tarzda o'tkazilishi mumkin bo'lgan mashg'ulotlar ustida alohida to'xtalishni joiz deb topdik. Bayon etilishi nazarda tutilayotgan bunday mashg'ulotlar bolaning maktab o'quv-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli uyg'unlashib ketishiga, hayotda o'z o'rnini topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Quyida uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi mumkin bo'lgan rejali ish tizimini yoritib berishga harakat qilamiz. Tavsiya etiluvchi ishlar tizimiga rioya qilgan

holda oiladagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish farzandlaringizning nafaqat maktab ta'limiga tayyorgarligi, balki ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashuvini ham ta'minlaydi. Aytib o'tish joiz-ki, uy sharoitida olib borilishi lozim bo'lgan barcha tadbirlar soddalashtirilgan holda, bolaning rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, kattalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ba'zan bolaning erishgan yutuqlariga ko'ra ularni biroz soddalashtirgan yoki murakkablashtirgan holda ham qo'llash imkonini beradi.

Farzand – bu oila gultoji, Vatanimiz kelajagi. Zero, milliy pedagogikamiz asoschisi Abdulla Avloniy aytganidek: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir... Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, birinchi-uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi-maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”. SHu sababli ham Respublikamiz hukumati bu masalaga jiddiy e'tiborni qaratib kelmoqda. Farzandlarimizning ma'naviy hamda jismoniy jihatdan sog'lom, baquvvat, kelajagi buyuk O'zbekistonning ilg'or fuqarosi bo'lib yetishishlari uchun barcha - muallimlar ham, ota-onalar ham, mahalla ham hamjihat bo'lib kurashishlari kerak.

Bolalarning qurish-yasash faoliyatlari deganda, biz ularning turli-tuman ashyolar (qog'oz, karton, yog'och, plastilin, tabiiy ashyolar, maxsus qurish o'yinchoqlari va “Lego”) dan har xil o'yin uchun buyumlarni yaratishlarini tushunsak, tasviriy faoliyatlari deganda, ular shaxsining har tomonlama rivojlanishi, atrof-olamni faol anglashlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi badiiy faoliyatlarni tushunamiz.

Bu faoliyatlar o'zida ham badiiy, ham texnik qurish –yasashni mujassamlagani sababli eshitishida muammolari bo'lgan bolalar uchun murakkab jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.

3. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.